DİLSEL BİRİMLERİN PRAGMATİK İÇERİĞİ VE KONUŞMADAKİ GÖRÜNÜMLERİ
PRAGMATIC CONTENT OF LINGUISTIC UNITS AND ITS OCCURRENCE IN SPEECH

Mahmudjonov Shohruxbek

Özet: Bu makale, dil birimlerinin pragmatik içeriğini, oluşum mekanizmalarını ve konuşma sürecindeki ortaya çıkış özelliklerini incelemektedir. Çalışma, dil birimlerinin içeriğinin yalnızca sözcüksel, gramer ve anlamsal yönlere dayanarak yorumlanmasının, gerçek iletişimsel değerlerini tam olarak ortaya koymaya izin vermediği ve pragmatik faktörlerin dikkate alınması gerektiği gerçeğine dayanmaktadır. Çalışma, bağlamı, konuşma durumunu, konuşmacının iletişimsel niyetini, dinleyicinin yorumunu ve iletişim kuranların genel arka plan bilgisini, pragmatik içeriğin oluşumunu etkileyen birbiriyle ilişkili pragmatik faktörler olarak analiz etmektedir. Ayrıca, ön varsayım, çağrışım, ilişkisel bağlantı ve mantıksal çıkarım gibi faktörlerin, dil birimlerinin örtük içeriğinin oluşumunda ve anlaşılmasında oynadığı rolü vurgulamaktadır. Çalışma, dil birimlerinin pragmatik özelliklerini iletişim stratejileri, değerlendirme, ifade gücü ve deiksis olgularıyla ilişkili olarak analiz etmek için bağlamsal, anlamsal ve dilsel pragmatik analiz yöntemlerini kullanmaktadır. Özellikle Abdullah Kahhor'un öykülerinden alınan edebi metin örneklerine dayanarak, bağlamsal ve durumsal faktörlerin etkisi altında örtük içeriğin oluşumu ve algılama mekanizmaları ortaya çıkarılmıştır. Çalışmanın sonuçları, dil birimlerinin pragmatik içeriğinin, iletişim kuranların arka plan bilgisi, çağrışımsal hayal gücü, konuşma deneyimi ve mantıksal sonuçları aracılığıyla oluştuğunu ve zenginleştiğini göstermektedir. Bağlam, konuşma durumu ve iletişimsel niyetin etkileşiminin, edebi söylemde ironi, gönderme, örtük değerlendirme ve iletişimsel etkinin ortaya çıkmasında önemli bir faktör olduğu belirlenmiştir. Pragmatik yaklaşımın, dil birimlerinin örtük içeriğini ve iletişimsel işlevini belirlemek için etkili bir metodolojik temel olduğu sonucuna varılmıştır.

Anahtar kelimeler: pragmatik, pragmatik anlam, dilsel birim, konuşma bağlamı, iletişimsel durum, çağrışım, ön varsayım, ilişkisel bağlantı, mantıksal sonuç, pragmatik dilbilim.

Abstract: This article studies the pragmatic content of linguistic units, the mechanisms of their formation and the features of their occurrence in the speech process. It is based on the fact that interpreting the content of linguistic units only on the basis of lexical, grammatical and semantic aspects does not allow to fully reveal their real communicative value and the need to take into account pragmatic factors. The study analyzes the context, speech situation, communicative intention of the speaker, interpretation of the listener and general background knowledge of the communicants as interrelated pragmatic factors that affect the formation of pragmatic content. It also highlights the role of factors such as presupposition, connotation, associative connection and logical inference in the formation and understanding of the implicit content of linguistic units. The study uses contextual, semantic and linguvopragmatic analysis methods to analyze the pragmatic properties of linguistic units in relation to communicative strategies, evaluation, expressiveness and deixis phenomena. Based on examples taken from literary texts, in particular, from the stories of Abdulla Qahhor, the formation of implicit content under the influence of contextual and situational factors and the mechanisms of perception are revealed. The results of the study show that the pragmatic content of linguistic units is formed and enriched in content through the background knowledge, associative imagination, speech experience and logical conclusions of communicants. It is determined that the interaction of context, speech situation and communicative intention is an important factor in the emergence of irony, allusion, implicit assessment

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

and communicative effect in literary speech. It is based on the fact that the pragmatic approach is an effective methodological basis for determining the implicit content and communicative function of linguistic units.

Keywords: pragmatics, pragmatic meaning, linguistic unit, speech context, communicative situation, connotation, presupposition, associative connection, logical conclusion, pragmalinguistics.

Annotatsiya: Mazkur maqolada lisoniy birliklarning pragmatik mazmuni, uning shakllanish mexanizmlari va nutq jarayonida voqelanish xususiyatlari tadqiq etiladi. Lisoniy birliklar mazmunini faqat lug'aviy, grammatik va semantik jihatlar asosida izohlash ularning real kommunikativ qiymatini to'liq ochib berishga imkon bermasligi hamda pragmatik omillarni hisobga olish zarurligi asoslanadi. Tadqiqotda pragmatik mazmunning shakllanishiga ta'sir etuvchi kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlovchining kommunikativ niyati, tinglovchining interpretatsiyasi va kommunikantlarning umumiy fon bilimlari o'zaro bog'liq pragmatik omillar sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, presuppozitsiya, tagma'no, assotsiativ bog'lanish va mantiqiy xulosa kabi omillarning lisoniy birliklarning implitsit mazmunini shakllantirish va anglashdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda kontekstual, semantik va lingvopragmatik tahlil usullaridan foydalanilib, lisoniy birliklarning pragmatik xususiyatlari kommunikativ strategiyalar, baholash, ekspressivlik va deyksis hodisalari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Badiiy matnlar, xususan, Abdulla Qahhor hikoyalaridan olingan misollar asosida bevosita ifodalanmagan mazmunning kontekstual va situativ omillar ta'sirida shakllanishi hamda anglanish mexanizmlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari lisoniy birliklarning pragmatik mazmuni kommunikantlarning fon bilimlari, assotsiativ tasavvurlari, nutqiy tajribasi va mantiqiy xulosalari orqali shakllanishi va mazmunan boyishini ko'rsatadi. Badiiy nutqda kinoya, ishora, implitsit baho va kommunikativ ta'sirning yuzaga kelishida kontekst, nutqiy vaziyat va kommunikativ niyatning o'zaro ta'siri muhim omil ekanligi aniqlanadi. Pragmatik yondashuv lisoniy birliklarning implitsit mazmuni va kommunikativ funksiyasini aniqlashning samarali metodologik asosi ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: pragmatika, pragmatik ma'no, lisoniy birlik, nutqiy kontekst, kommunikativ vaziyat, tagma'no, presuppozitsiya, assotsiativ aloqa, mantiqiy xulosa, pragmalingvistika.

Kirish. Hozirgi kunda fanlarning rivojlanish jarayoni hissiy bilish (empirik) bosqichidan nazariy bilish bosqichiga yuksalib, hodisa va jarayonlarni tizimli hamda metodologik asosda o'rganish tamoyili tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy tafakkurning takomillashuvi natijasida mavjud dalillarni shunchaki tavsiflash bilan cheklanib qolmay, ularning o'zaro aloqadorligi, ichki qonuniyatlari va rivojlanish mexanizmlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, har qanday ilmiy hodisani alohida, uzilgan holda emas, balki yaxlit tizimning tarkibiy qismi sifatida tadqiq etish zamonaviy ilmiy yondashuvning muhim mezonlaridan biridir. Xususan, tilshunoslikda ham lisoniy hodisalarni faqat tashqi shakli va bevosita ifodalangan mazmuni asosida emas, balki ularning tizimdagi o'rni, funksional xususiyatlari hamda nutqiy jarayondagi voqelanishi bilan bog'liq holda o'rganish zarurati kuchaymoqda.

"Olamning dialektik rivojlanishida tabiat va jamiyatdagi har qanday hodisa sistemaviy munosabatni tashkil qilishi hech kimga sir emas"[1]. Faqatgina insonga xos hodisa tilning tabiatini uning inson hayotidagi mohiyatini chuqurroq va yanada ko'proq bila boshlaganimiz sari yangi savollar tug'iladi va oldingi savollar hamda ularga berilgan javoblarni qayta "taftish qilish" ehtiyoji o'sib boradi.

"Tilshunoslik – empirik fan undagi nazariy g'oyalar doimo to'plangan dalillar tahlili asosida shakllanadi. Shunday ekan, tilshunoslikda tilning asosiy tarkibiy birliklarini (fonema, morfema, so'z, gap

[1] Nurmonov A. Tanlangan asarlar: I, II, III jildlar. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 3 jild. 31-bet

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kabilar) o'rganishga bo'lgan qiziqish so'nmasligi muqarrar. Lekin lisonning tub mohiyatini to'liq anglash uchun zohiriy hodisalardan tashqari, inson lisoniy faoliyatining tashkiliy qismlarini, uning botinidagi hodisalarni o'rganish ham zarurdir"[2].

Hozirgi kunda til birliklarini pragmatik tomondan tahlil qilinishi hozirgi tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, pragmatik tahlil lisoniy birliklarning o'rganilmagan jihatlarini tahlil qilish uchun keng imkoniyat yaratadi.

"Lisoniy faoliyatning pragmatik jihatlarini hamda ularni shakllantiruvchi ekstralingvistik va kommunikativ omillarni tadqiq etish tilning ijtimoiy tabiatini anglashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Chunki tilning real voqelanishi kommunikantlarning ijtimoiy tajribasi, psixologik holati, kommunikativ ehtiyoji va muayyan nutqiy vaziyat bilan uzviy bog'liq holda amalga oshadi. Shu nuqtayi nazardan, til tizimining rivojlanish jarayonlarini pragmatik omillardan ajratib o'rganish uning funksional mohiyatini to'liq ochib berishga imkon bermaydi".

Tadqiqotning maqsadi: Tilshunoslikda sintaktik tadqiqotlarning rivojlanishi lisoniy birliklarni faqat shakliy va semantik xususiyatlari asosida tavsiflash tilning murakkab mohiyatini to'liq ochib berish uchun yetarli emasligini ko'rsatdi. Lisoniy birliklarning real mazmuni ularning muayyan kontekst, kommunikativ vaziyat va nutqiy faoliyat jarayonidagi qo'llanishi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu bois lisoniy birliklarni kontekstual va situativ omillar bilan aloqadorlikda tadqiq etish ularning mazmuniy imkoniyatlarini yanada aniqroq belgilash hamda kommunikativ vazifasini to'laqonli anglash imkonini beradi. Mazkur yondashuv til birliklarining nafaqat nominativ-semantik, balki kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini ham tadqiq etishga bo'lgan ilmiy qiziqishning kuchayishiga zamin yaratadi.

Darhaqiqat, o'zbek tilida ma'no va mazmun ifodalash uchun lisoniy birliklarning har bir nutq situatsiyasi uchun ko'plab variantlari mavjud. Bu haqida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul – lug'atayn" asarida quyidagicha yozadi: *"Bu tilda g'arib alfoz va ado ko'pdur. Muni xush oyanda tartib va raboyanda tarkib bila bog'lamog'ning dushvorlig'i bor".* Ya'ni, turkiy tilda ajoyib so'z va iborlarning xilma – xil variantlari mavjud. Bularni yoqimli tartib va o'ziga tortuvchi ohang bilan bog'lamoqning qiyinchiligi bor.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI:

Tadqiqotda lisoniy birliklarning pragmatik mazmunini aniqlash uchun kontekstual tahlil, pragmalingvistik tahlil, tavsifiy tahlil va mantiqiy-interpretativ yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Qahhorning *"Mayiz yemagan xotin", "O'g'ri" va "Anor"* hikoyalaridan olingan parchalar hamda pragmatika masalasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar tanlandi.

Kontekstual tahlil yordamida lisoniy birliklarning matn tarkibidagi mazmuni, ularning oldingi va keyingi jumlalar bilan aloqasi hamda muayyan vaziyatda anglatgan ma'nosi o'rganildi.

Pragmalingvistik tahlil orqali personajlarning kommunikativ maqsadi, nutqiy ta'sir vositalari, kinoyaviy munosabati va bevosita ifodalanmagan mazmunni yuzaga chiqaruvchi omillar aniqlandi.

Tavsifiy tahlil asosida hikoyalarda qo'llangan lisoniy birliklarning pragmatik xususiyatlari izohlandi.

[2] Mengliyev B. Tilshunoslik nazariyasining til amaliyotiga integratsiyasi [Elektron resurs]. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi / Boshqaruv akademiyasi, 2021. – Elektron resurs.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Mantiqiy-interpretativ yondashuv esa o‘quvchining matnda ochiq ifodalanmagan axborotni mavjud vaziyat, fon bilimlari va assotsiativ bog‘lanishlar asosida anglash jarayonini tahlil qilishga xizmat qildi.

Tahlil jarayonida lisoniy birliklarning lug‘aviy mazmuni bilan cheklanib qolmasdan, ularning kontekstda hosil qilgan qo‘shimcha ma’nolari ham hisobga olindi. Bunda personajlar o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy muhit, voqealar rivoji va muallifning badiiy maqsadi asosiy tahlil mezonlari sifatida belgilandi.

Mazkur metodologik yondashuv lisoniy birliklarning semantik mazmuni bilan pragmatik mazmuni o‘rtasidagi farqni aniqlash va badiiy matnda yashirin mazmunning yuzaga kelish mexanizmlarini izohlash imkonini berdi.

“Lisoniy birliklarning sintaktika va semantikasi bu birliklarning to‘liq tavsifi uchun kamlik qiladi. Sintaktika va semantikaga pragmatika qo‘shilgandagina, ular o‘zining haqiqiy talqinini topadi. Masalan: *Hamma vaqtini xushnud o‘tkazmoqda* jumlasi orqali muayyan shaxslar va ularning muayyan zamon va makondagi holati propozitsiyasi ifodalangan. Lekin, jumla orqali ifodalangan propozitsiyaning so‘zlashuvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun buning o‘zi kifoya qilmaydi. Buning uchun so‘zlashuvchilarning vaqtini xushnud o‘tkazayotgan ma’lum guruhlar haqida va ularning holati haqida, ro‘y berayotgan ma’lum makon va zamon haqida umumiy bilimga ega bo‘lishlari lozim. Chunki, dunyodagi barcha odamlar vaqtini xushnud o‘tkazishi mumkin emas”[3]. Demak, yuqoridagi jumla aniq shaxslar, aniq makon va zamon bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Jumla orqali ifodalanayotgan propozitsiyaning nutq vaziyati bilan ana shunday munosabatini o‘rganish jumlaning pragmatik tomonini tashkil qiladi.

Menga qolsa biz o‘zbeklar o‘ta pragmatik xalqmiz degan bo‘lar edim. Chunki, o‘zbek tilining tasvir va ifoda imkoniyatlari shu qadar kengki, birgina sintaktik qurilma bir necha xil semik va pragmatik tahlil qilinishi mumkin. O‘zbek tilidagi sintaktik konstruksiyalarni “Kosa tagida nimkosa”, “Qizim senga gapiraman, kelinim sen eshit” qabilida tushunilmasa, ularning mazmun tomoni kemtik bo‘lib qoladi.

Aslini olganda, til birliklarining bunday ma’no ko‘lami juda keng. Fikrimizni Abdulla Qahhor hikoyalari kesimida davom ettiramiz.

“*U devor ustidagi qizga qarab bo‘g‘iq tovush bilan o‘shqirdi: Sen gapirma! Senga kim qo‘yibdi gapirishni! Usta Mavlonning o‘g‘lidan bir hovuch mayiz olganingni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman! Hamma kulib yubordi. Tomdan kimdir qichqirdi: Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan!”*[4].

Ushbu parcha Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidan olingan. Hikoyaning boshida Norqo‘zi ismli personajning o‘ta “taqvodor” va “diyonatli” inson sifatida taniysiz. Ammo, ushbu *“taqvodor”* inson hammaning ayolini g‘iybat qilib, *“to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatmoqchi”* bo‘ladi-yu, o‘z ayolining nima ishlar qilib yurganidan bexabar. Personajlar nutqini individuallashtirish yozuvchining illokutiv maqsadini ro‘yobga chiqaradi.

“-Ha bu kishining xotini mayiz yemagan” jumlasi orqali hikoyaning botiniy syujeti akslanadi. Konteksda o‘tkir kinoya ham o‘z ifodasini topgan. Ya’ni: *“Avval o‘zinga boq”* qabilidagi mazmun anglashiladi.

“ – Ey, yosh bolamisiz? Nega yig‘laysiz? Kap – katta odam . . . bitta ho‘kiz bo‘lsa bir gap bo‘lar, Xudo ajalga to‘zim bersin. Bitta ho‘kiz odamning xunimi?

---

[3] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – B. 46-bet

[4] Qahhor A. Anor: hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 200 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin "kichkinagina" sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi . . .[5]*"* Parcha "O'g'ri" hikoyasining yakuniy qismidan olingan. Hikoyaning oxirida Qobil bobo *"najot topadi"*. Ya'ni tinimsiz sarson – sargardonlikdan so'ng ellikboshi oxiri o'zining qaynotasi yoniga olib boradi. Paxtafurushning kuzda qo'yiladigan talabi aslida *"kichkinagina"* shart emasligini o'quvchi kontekst doirasida tushunadi. O'quvchi o'z ongida kontekst talabidan kelib chiqib, assotsiativ hukmlar shakllantiradi:

1. Qobil boboni hech kim nazar – pisand qilmaydi;
2. U davrdagi amaldorlar hech qachon nochorlarga beg'araz yordam qilmaydi;
3. Shuning uchun Egamberdi paxtafurush ham *"kichkinagina"* shart qo'ymaydi.

"Tom orqasida xo'roz qanot qoqib qichqirdi. Ko'cha eshigi ochildi. Xotin to burilib qaraguncha Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi. U tugunni uyning o'rtasiga tashladi. Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi. Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko'rib xotini qo'rqib ketdi – bu qadar oqargan! Turobjon o'tirib peshonasini ushladi. Xotini yugurib oldiga keldi va yelkasiga qo'lini qo'ydi.

- Qayoqqa bordingiz? – dedi entikib. – Nima qildingiz? Turobjon javob bermadi. Uning vujudi titrar edi"[6].

Matnni pragmatik tahlil qilayotganda o'quvchi matn konteksti doirasida mantiqiy xulosa chiqaradi. Asl tagma'no shunda anglashiladi:

1. Turobjonni anor sotib olishga mablag'i yetarli emas;
2. Mullajon qozini bog'ida choynakday – choynakday anorlar o'sib yotibdi;

Yuqoridagi assotsiativ hukmlar orqali Turobjonning anorlarni qayerdan olgani mantiqiy xulosa chiqarish orqali bilinadi. Vaholanki, yozuvchi hikoya so'ngida Turobjonning holatini "vujudi titrar edi" epiteti orqali tasvirlaydi. O'quvchi esa Turobjonni o'g'irlik qilishga to'g'ri kelganligini mantiqiy xulosasi orqali bilib oladi.

"Axborotning to'g'ri tushunilishi uchun so'zlashuvchilarning til haqidagi bilimidan tashqari tinglovchining olam haqidagi bilimi, jumla qo'llanilayotgan ijtimoiy holat haqidagi bilimi, so'zlash jarayonida so'zlashuvchilar ruhiyati haqidagi bilimi va boshqa bilimlarini ham qo'shish kerak bo'ladi[7].

Axborotni tushunish jarayonida yuqoridagi bilimlarning barchasi teng darajada kerak bo'ladi. Shuning uchun faqat bu bilimlarning o'zaro munosabatini hisobga olgandagina biz nutqiy jarayonning mohiyatini anglashga yaqinlashgan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda**,** lisoniy birliklarning mazmunini to'laqonli anglash ularni faqat shakliy va semantik jihatdan emas, balki kontekst, nutqiy vaziyat hamda kommunikativ maqsad bilan uzviy bog'liqlikda tadqiq etishni taqozo etadi. Tadqiqot natijalari pragmatik mazmunning shakllanishida presuppozitsiya, tagma'no, assotsiativ bog'lanish va mantiqiy xulosaning o'zaro aloqadorligi muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Badiiy matnlar tahlili bevosita ifodalanmagan mazmunning o'quvchi tomonidan fon bilimlari, assotsiativ tasavvurlari va mantiqiy xulosalari asosida tiklanishini ko'rsatdi. Shuningdek, pragmatik yondashuv lisoniy birliklarning implitsit mazmunini ochish, uning shakllanishida kontekst, assotsiativ tafakkur va mantiqiy xulosaning o'zaro munosabatini aniqlash imkonini beradi.

---

[5] Qahhor A. Anor: qissa va hikoyalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 200 b.
[6] Qahhor A. Anor: qissa va hikoyalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 76-bet.
[7] Маҳмудов Н., Нурмонов А. "Ўзбек тилининг назарий грамматикаси". – Тошкент, 1995. – Б. 8.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 176 b.
2. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini. – Toshkent: Fan, 2001.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 232 b.
4. Mengliyev B. Tilshunoslik nazariyasining til amaliyotiga integratsiyasi [Elektron resurs]. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, 2021.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar: I, II, III jildlar. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 3 jild.
6. Qahhor A. Anor: qissa va hikoyalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 200 b.
7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.
8. Saidova Z. O'zbek tilida presuppozitsiyaning ifodalanishi va pragmatik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2019.
9. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.
10. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008. – 160 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.